

## O'ZBEKISTON VA HINDISTON MUNOSABATLARNING TARIXIYLIGI

Asadova Ra'no Baymanovna,  
t.f.n.dots.Iqtisodiyot va pedagogika universiteti.  
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.007>

*Annotatsiya. Mazkur maqolada Hindiston va O'zbekiston davlatlararo`rtasidagi o'zaro hamkorlikning yuzaga kelishi, rivojlanishi va mazkur jarayondagi muammoli holatlar ilmiy manbalar asosida tarixiy tahlil etiladi.*

*Kalit so'zlar: Mustaqil O'zbekiston, Hindiston, xalqaro hamkorlik, xalqaro bitim, qo'sma kelishuv.*

## ИСТОРИЯ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ИНДИЕЙ

Асадова Рано Баймановна,  
к.и.н., доцент, Университет экономики и педагогики.

*Аннотация. В этой статье говорится о сотрудничестве Узбекистана и Индии в экономической и культурной области, выявить основные тенденции и перспективы дальнейшего взаимосотрудничества.*

*Ключевые слова: независимый Узбекистан, Индия, международные отношения, международное сотрудничество, правовая основа, совместные соглашения, экономика, торговля.*

## HISTORY OF RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND INDIA

Asadova Rano Baymanovna,  
Ph.D. Associate Professor, University of Economics and Pedagogy, N.T.M.

*Abstract. This article speaks of cooperation between Uzbekistan and India in the economic and cultural field, identifying the main trends and prospects for further mutual cooperation.*

*Key words: independent Uzbekistan, India, international relations, international cooperation, legal basis, reciprocal agreements, economy, trade.*

Boy tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi asrlar davomida boshqa davlatlar xalqlari bilan yaqin aloqada yashab kelgan, hozirgi avlodlar ham bu an'anani e'zozlab saqlab kelmoqda. Biroq O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan o'zaro hamkorligining zamonaviy manbalarini chuqurroq anglash uchun tarixga murojaat qilish kerak.

Hozirgi davrdagi O'zbekiston-Hindiston munosabatlari – bu qadimdan sinovdan o'tgan ko'p asrlik an'anaviy o'zaro manfaatli aloqalarning davomidir. Bunday do'stona aloqalar Buyuk Ipak yo'li davridan avval boshlangan.

O'zbekistonning sobiq SSSR xalqaro aloqalaridagi ishtirokini sovet davrida ijod qilgan mualliflarning ishlarida kurish mumkin. Ular qatorida Ch.A. Abutalipov, G. Inom-jo-no-va, K. Ka-rimov, U.A. Rustamov, S.K. Ziyodullayev, Sh.M. Abdullayev, H. Ziyoyev, F.X. Baqoyev va boshqalarning ishlarini sanab o'tish maqsadga muvofiqdir. Masalan M. Babaxodjaevning ilmiy ishlarida O'zbekistonning tashqi dunyo bilan aloqalarini ko'rsatib o'tishga harakat qilingan. [1,10]. Ushbu mualliflardan S.K. Ziyodullayev o'z tadqiqotlarida reaspublikamizning xorijiy mamlakatlar bilan ko'p sonli savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalarga oid dalillarni jalb qilgan holda ittifoqdosh respublikaning xalqaro hamkorlik sohasidagi ishtirokini yoritgan [2,41.]. Ko'rsatib o'tilgan ishlarda keltirilgan ko'p sonli dalillar orasida o'zbek-hind hamkorligiga doir ba'zi ma'lumotlar ham mavjud bo'lib, bu xalqlarning o'sha davrdagi o'zaro aloqalarining realholatini qayta tiklashga yordam beradi.

O'zbekistonning sobiq SSSRning alohida ikki tomonlama aloqalaridagi ishtiroki

masalalari ham sovet davridagi tadqiqotlarning diqqat markazida turgan. Shu ma'noda Osiyo va, jumladan, Hindiston bilan hamkorlik masalalariga bag'ishlangan ishlar juda qiziqarli.

Ammo ular ham SSSR hukmron siyosatining mafkuraviy bosimidan xoli emas edi. Lekin shunga qaramasdan, davlatlarning ikki tomonlama aloqalaridan bahs etuvchi monografiya, risola va alohida ilmiy maqolalar o'tgan yillar voqealarini tarixiy-izchil asosda tahlil qilish nuqtai nazaridan qiziqish uyg'otadi. Ular davlatlararo hamkorlik shakllari rivojlanishini bosqichma-bosqich kuzatish va tegishli ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi. Shu ma'noda alohida olimlarning Osiyoning eng qadimiy davlatlaridan biri – Hindistonga bag'ishlangan ishlari katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, L. Aziz-zoda [3,27.] o'zining “Rus – hind – o'zbek xalqlarining tarixiy aloqalari” nomli kitobini Rossiya, Hindiston va O'zbekiston xalqlarining savdo, ilmiy va madaniy sohalarda o'rnatilgan qadimiy aloqalarini yoritishga bag'ishlangan. T. G'iyosovning [4,9.] ishlari esa bevosita Hindistonga, shuningdek, SSSR va uning xalqlari bilan xalqaro munosabatlardagi dolzarb muammolarni hal qilish bo'yicha hamkorlikka bag'ishlangan.

O'zbekiston Respublikasining mustaqil rivojlanishi davrida yaratilgan tadqiqotlar ham mavjud. Ushbu davrdagi ilmiy adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, tarixshunosligimizda xalqaro mavzu o'zining mustahkam o'rnini egallab ulgurgan. A. Qo'simov va, I. Vaskinlar o'zilarining tadqiqotlarida milliy mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan respublikamizning dunyo hamjamiyati tizimiga kirib borish yo'li yoritib berishga harakat qilishgan. [5,63]. Mamlakatimiz tashqi siyosatining shakllanishi va rivojlanish masalalari ko'rib o'tilgan bu ishlarda mustaqil O'zbekistonning tashqi siyosatidagi asosiy tamoyil va ustuvor yo'nalishlari tatbiqi jarayonlari yoritib berilgan.

S.SH. Sharapova esa o'z tadqiqotlarida mustaqil O'zbekistonning davlatlararo munosabatlarini umumjahon tizimiga o'tish xususiyatlari tahliliga qaratgan. [6,16].

Xalqaro hamkorlik masalalari bilan shug'ullanayotganlar uchun E.Z. Nuriddinovning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. [7,23]. Ularda keng doiradagi hujjatli materiallarni jalb etish asosida respublikamizning Yevropa mamlakatlari bilan har tomonlama aloqalari yoritib berilgan.

Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar orasida A. Qirgizboyevning “O'zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi” monografiyasi ham ajralib turadi [8,150]. Bunda o'zbek davlatining Osiyoning yetakchi mamlakatlari bilan ko'p tomonlama hamkorligi yoritib berilgan. Ular orasida, shuningdek, o'zbek-hind hamkorligiga oid o'rinlar ham bor.

Xalqaro hamkorlik masalalarini o'rganishda chet ellik olimlarning qarashlari va pozitsiyalarini hisobga olish muhim. Bunda, avvalambor, G. Morgentau, M. Kaplan, S. Xoffman, G. Kissenjer va boshqa mualliflarning ishlariga diqqat qaratish lozim. Chet el olimi G. Kissenjer o'z ishlarida tashqi siyosat nazariyasini aks ettirgan holda asosiy e'tiborini xalqaro munosabatlar falsafasini anglash, shuningdek, sobiq sovet makonida vujudga kelayotgan davlatlararo siyosiy-iqtisodiy munosabatlarni yoritib berishga qaratgan. [9,77].

Shuningdek J. Berton, P. Reynolds, P. Neylor, S. Xantington, Z. Bjezinskiy, S. Alford, R. Ayronva boshqalarning ishlari ham nazariy nuqtai nazardan ahamiyatli sanaladi. Ulardan Z. Bjezinskiy xalqaro munosabatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillarni yoritib bergan va globalizatsiya sharoitida davlatlararo aloqalarning istiqbollarni ochib berishga harakat qilgan. [10,121].

Sobiq SSSR respublikalari ijtimoiy iqtisodiy va ekologik ahvoriga o'z salbiy ta'sirini o'tkazgan sovet tuzumining asoratlari doimo chet ellik olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Mustaqil O'zbekistonning xalqaro maydondagi ishtirokining potensial imkoniyatlarini anglab yetishda M. Keyzer, S. Mexrota, N. Lyubin, P. Goubl, D. Diker va boshqalarning ishlari katta qiziqish uyg'otadi. Masalan M. Keyzer va S. Mexrotalar O'zbekistonning xalqaro maydondagi tashqi siyosiy pozitsiyasi, shuningdek, dunyo hamjamiyati mamlakatlari

bilan hamkorligining alohida masalalariga to'xtalib o'tishgan[11,39]. Bunda ular tomonidan O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi geopolitik roliga, mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash muammolariga Osiyo va dunyoning yetakchi davlatlari diqqatini qaratish maqsadidagi tashabbuslariga alohida e'tibor beriladi.

Markaziy Osiyo respublikalari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasidagi hozirgi holat, uning xalqaro maydonda tutgan yo'liga Rossiya olimlari ham alohida qiziqish bildirishadi. Masalan, S. Jukov, O. Rezni-kovalar tadqiqotlari va monografiyalarida O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'yi oshib borishiga hamda uning ham Markaziy Osiyo mintaqasi, ham butun dunyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tashabbuslariga yuksak baho berishgan.[12,35].Shu tariqa ko'rinadiki, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida dastlabki kunlardanoq amaliy va maqsadli tashqi siyosat yurita boshlagan. Bu unga to'la huquqli davlat sifatida dunyo hamjamiyatiga uyg'unlik bilan kirib borish imkonini beradi.

Bunda mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilagan holda O'zbekiston teng huquqli asosda xorijiy davlatlar bilan o'zaro foydali hamkorlik o'rnatish boshladi. Ushbu jarayon o'zbek-hind munosabatlarining huquqiy asosi shakllanishida o'z ifodasini topdi, bu esa O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasida keng ko'lamlı iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy hamkorlik uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi.

Xullas mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilagan holda O'zbekiston teng huquqli asosda xorijiy davlatlar bilan o'zaro foydali hamkorlik o'rnatish boshladi. Ushbu jarayon O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasida keng ko'lamlı iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy hamkorlik uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бабаходжаев М. Участие УзССР в культурном сотрудничестве СССР со странами Ближнего и Среднего Востока // *Общественные науки в Узбекистане*. (Далее – ОНУ). – 1981. – № 7. – С. 10.
2. Зиядуллаев С.К. Экономика Узбекской ССР в едином народно-хозяйственном комплексе страны. – Т.: Фан, 1983-С.41. Касымов А.М. Советский Узбекистан в экономическом сотрудничестве СССР с Афганистаном на современном этапе. – Т.; 1984; Ахмедов
3. Azizzoda L. Rus – hind – o'zbek xalqlarining tarixiy aloqalari. – Т., Fan, 1983.В.27.
4. G'iyosov T. Bugungi Hindiston – Т.: O'zbekiston,В.9.
5. Касымов А., Васькин И. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан. – Т.: Узбекистан, 1994.В.63.
6. Шарапова С.Ш. Основные проблемы становления и развития внешней политики Республики Узбекистан.: Автореф. дисс. .. канд. полит. наук. – Т., 1997.В.16.
7. Нуриддинов Э.З. Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. – Т.: Чулпан, 2002.В.23.
8. Qirg'izboyev A. O'zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi. – Т.: Fan, 2004.В.150.
9. Киссенджер Г. Рецепт хаоса // *США – ЭПИ*. – 1994. – № 1. – С. 77.
10. Бжезинский З. Вне контроля. Глобальный беспорядок накануне XXI в. // *США. Экономика. Политика. Идеология*. – 1994. – № 4. – С. 121.
11. Kaser M., Mehrota S. The Central Economies after Independence. Royal Institute of International Affairs. – L., 1992.С.39.
12. Жуков С., Резникова О. Центральная Азия в мировой политике и экономике // *США – ЭПИ*. – 1994. – № 12. –С. 35.